



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 24-dekabr, seshanba,
146 (24.023)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ko'lining
otini
balig'i
chiqarar

Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Deputat tashabbuskor va talabchan bo'lishi zarur

Oliy Majlis Senati tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlari deputatlari uchun o'quv seminar tashkil etildi.



Onlayn tashkil etilgan mashg'ulotlar avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, unda vakillik organlarining o'rni xususida so'z yuritildi.

Shundan so'ng Senatning tegishli qo'mitasi hamda yuqori palata devonining hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi vakillari, Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari mahalliy Kengashlar deputatlari maqomi, deputatlik faoliyatining kafolatlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

Mutaxassislar shuningdek, mahalliy Kengashlar, doimiy komissiyalar, partiya guruhlar va deputatlar faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish masalalariga to'xtaldi.

Yangi chaqiriq aksar deputatlar ilk marta saylanganidan tashqari, yangi davr, aniqrog'i, yangi tartiblar sharoitida amalga oshirilishi bilan farq qiladi, - deydi xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Serali Yo'ldoshev. - Misol uchun, seminar davomida mahalliy budjetni shakllantirish, uning ijrosi ustidan sa-

marali deputatlik nazoratini amalga oshirish borasida ma'ruza tinglandi.

Yashirib nima qildik, avvalgi sharoitda viloyat hokimi rahbarlik qilgan Kengashga kiritilgan budjet loyihasi tasdiqlangan, nazorati deyarli qilinmagan. Kengash ijro hokimiyatidan to'liq mustaqil bo'lgan bir sharoitda budjetni nafaqat tasdiqlash, uning ijrosi qanday ta'minlanayotganiga ham qarashimiz zarur.

Shu ma'noda bugungi o'quv vakillik organlari oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish, ular faoliyatini samarali tashkil etish, eng muhimi, aholi turmush farovonligini oshirishda deputatlarning o'rni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Ikki kunga mo'ljallangan seminar davomida mahalliy Kengashlar deputatlarining saylovchilar murojaatlari bilan ishlashi, saylov okrugida fuqarolar qabullarini tashkil etish bo'yicha ma'ruza tinglandi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatida raqamli texnologiyalar, qarorlar qabul qilishda qonuniyligni ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

O'z muxbirimiz.

SPORT TA'LIM MUASSASALARI HOLATI O'RGANILDI



Respublika bo'yab sport ta'lim muassasalarida o'rganish ishlarini olib borayotgan soha rasmiylarining navbatdagi manzili Samarqand bo'ldi.

Da'lab sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi o'rganildi.

Tashrif davomida ushbu obyektning infratuzilmasi, yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar o'rganildi. O'quvchi-yoshlarning mashg'uloti ko'zdan kechirildi.

Shuningdek, Samarqand shahridagi 1-son sport maktabi faoliyati bilan tanishildi.

Viloyat Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev, sport boshqarmasi va federatsiyalarning hududiy vakillari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

- Mazkur markazdan yetishib chiqqan yengil atletikachi Sharifa Davronova kabi iqtidorli yoshlarni yanada ko'proq tarbiyalash kerak, - dedi Sport vaziri A.Ikromov. - Buning uchun sportchilarga zarur sha-

roitlarni yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda ommaviy sport tadbirlarini ko'proq tashkil etish lozim.

Yig'ilish davomida 2025-yil va yaqin to'rt yil uchun rejalar, Los-Anjeles-2028 yozgi Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik davrida terma jamoalarga jalb etilishi mumkin bo'lgan sportchilarni aniqlash va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

F.RO'ZIBOYEV.

ELEKTR TA'MINOTIDA NEGA UZILISHLAR BO'LYAPTI?

"ZARAFSHON"ning

YouTube dagi

sahifasida ushbu

savolga javob

topishingiz mumkin!



"KASBLAR TANLOVI"

G'OLIBIGA 50 MILLION SO'M BERILADI

SAMARQANDDA "BESH TASHABBUS OLIMPIADASI" DOIRASIDA "KASBLAR TANLOVI"NING RESPUBLIKA BOSQICHI BO'LIB O'TMOQDA.

Tanlovda 18-30 yosh toifasida dizaynerlik, 18-21 yosh toifasida novvoylik, payvandlash ustasi, elektromontaj ustasi hamda yosh quruvchi yo'nalishlarida hududiy bosqichlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan 70 nafardan ziyod yoshlar mahoratini ko'rsatmoqda.

- Toshkent viloyati Ohangaron tumani kadastri palatasida muhandis bo'lib ishlayman, - deydi Mo'minbek Abdulkayev. - O'tgan yil mazkur tanlovning yosh quruvchilar yo'nalishida respublikada ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan edim. Bu yil ham shu yo'nalishda ishtirok etib, devor profilini montaj qiladigan va suvoq ishlarini bajarish uchun mo'ljallangan maket yasayapman. Ishimni ekspertlar guruhi baholab bormoqda. Nasib qilsa, bu yilgi tanlovda g'olib bo'laman.

Bellashuvlar Samarqand shahridagi Monomarkaz, KOICA, Qurilish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash markazi binolarida o'tkazilmoqda.

Tanlovda birinchi o'rin uchun 50 million so'm, ikkinchi o'ringa 30 va uchinchi o'rin uchun 20 million so'm pul mukofoti topshiriladi. Shuningdek, faol ishtirok etganlarga 5 million so'mdan mukofot beriladi.

B.MUSTANOV.



Ijtimoiy davlat uchun

Munosabat

Prezidentimiz tomonidan Ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va 2025-yildagi ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan video-selektor O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining maqsadlari va dasturiy vazifalariga to'raligicha mos keladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki partiyamizning asosiy maqsadi "har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy favqulturni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatlari daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirish"dir.

Davlat rahbari joriy yil ijtimoiy himoya bo'yicha qilingan 34 ta muhim yangilikka qo'shimcha 28 ta yangi tashabbusni ilgari surgani hammamizni quvontirdi.

Kelgusi yilda 1 million 200 ming aholini kambag'allikdan chiqarish uchun ta'lim, to'garak, kasb-hunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va yashash sharoitini yaxshilash, 2025-yilda kambag'allik yuqori 1 mingta mahallada bittadan oilaviy bog'cha faoliyatini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi.

Yangi yildan oilaviy bog'cha o'rinlarining 15 foiziga kambag'al oila farzandlari qabul qilinishi va bog'cha to'lovi qisman qoplab berilishi, kambag'al oila farzandlarini chet tili, IT va kasb-hunarga o'qitish uchun qo'shim-

cha imkoniyatlar yaratilishi, kambag'al oiladagi 118 ming yoshlarni o'qitish va to'garak xarajati 80 foizgacha budjetdan qoplanishi juda katta imkoniyatdir. 2025-yilda 3,5 ming yoshlar oliygohga grant asosida qabul qilindi.

Kambag'al oilalardagi o'zi harakatlana olmaydigan 23 ming odamning 19 mingiga uyda va 4 mingiga kunduzgi qatnov asosida qarab turish yo'lga qo'yiladi. Muhtoj odamlarning jarrohlik amaliyoti uchun Tibbiy sug'urta jamg'armasiga qo'shimcha 185 milliard so'm ajratilishi, "Ijtimoiy daftarlari" mablag'i faqat kambag'al oilalarning yashash sharoitini yaxshilash, tibbiyot, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va daromadini oshirishga sarflanishi, ehtiyojmand aholini bitta ijtimoiy uy-joyga joylashtirishdan voz kechilishi, ularga mahallasiga yaqin joydagi uyni ijaraga olishga ruxsat berilishi va xarajati qoplab berilishi, ijtimoiy karta joriy etilishi yechimi bo'yicha amaliy ishlar bo'ladi.

Yig'ilishda ko'tarilgan eng dolzarb masalalardan biri nogironligi borlar bilan ishlash bo'ldi. Prezident nogironligi bor bolalar tengdoshlari qatori oddiy maktablarda o'qi-

shi muhimligiga e'tibor qaratdi.

Nogironligi borlarga beriladigan protez va reabilitatsiya vositalari ro'yxati 18 tadan 30 taga, mablag'i esa 1,5 barobarga oshirilishi, buning evaziga yil boshidan 100 ming odamning ehtiyoji ta'minlanishi, ro'yxatga yana 7 turdagi vositalar qo'shilishi belgilandi.

Yig'ilishda xalqaro andozalar asosida nogironligi borlar shug'ullanadigan sport turlari ham kengaytirilishi, ularni bunga layoqati kasallik turiga qarab avtomatik belgilanishi qayd etildi. Natijada sport bilan shug'ullanishga yo'llanma olishi mumkin bo'lgan nogironligi borlar soni 286 mingdan 440 mingga oshishi ta'kidlab o'tildi.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bugungi Prezidentimiz rahbarligida ijtimoiy himoyaga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilish partiyamiz saylovoldi dasturiga kiritilgan vazifalarning ijrosiga katta turki bo'ldi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi viloyat, tuman (shahar) kengashlari joylardagi mahalliy kengash deputatlarimiz bilan birga barcha imkoniyatlarni safarbar etib, davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarni og'ishmay amalga oshiramiz.

Badriddin NASRIYEV
O'zXDP viloyat kengashi raisi, viloyat Kengashi deputati.

Ipoteka krediti jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida biz uchun dolzarbligicha qolmoqda. Chunki aholining uy-joy sotib olishga talabi o'sib borayotgan bir paytda tijorat banklari uni moliyaviy resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlashi lozim.

IPOTEKA ELEKTRON GAROV XATI

UY-JOY TA'MINOTIDAGI KO'PLAB OVORAGARCHILIKLARGA BARHAM BERADI

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlari, asosan, hukumat tomonidan joylashtirilgan resurslar va o'z mablag'larini hisobidan ajratilaydi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ tashkil etildi, unga ipoteka bozorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, umuman, ipotekaning zamonaviy bozorini yaratish vazifasi yuklatildi. Bu borada salmoqli ishlar qilindi ham. Xususan, bugungi kunga qadar 18,8 ming nafar fuqaroning 3,7 trillion so'mlik ipoteka kreditlari qayta moliyalashtirildi.

Biroq bu masalada yuzaga kelgan va kelayotgan juda ko'plab holatlar qonunchilikdagi normalarda aks etmagan. Shu sababli byurokratik to'siqlar ipoteka kreditidan foydalanishda qog'ozbozlik va boshqa nizolarni keltirib chiqaryapti. "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar aynan ana shu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Ipoteka elektron garov xati ipoteka krediti olgan shaxs va bergan bank,

shuningdek, ipoteka kreditini garovga olganlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Garov xati ro'yxatdan o'tkazilganda uning muomala yo'llari raqamlashtiriladi. Garov xatini boshqa shaxsga berganda ipoteka krediti bo'yicha talab huquqi avtomatik ravishda ushbu shaxsga o'tadi. Bunda kredit va ipoteka shartnomalariga notarial tartibda o'zgartirish kiritish hamda ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab etilmaydi.

Shuni aytish kerakki, elektron garov xati orqali uy-joy boshqa shaxsga rasmiylashtirishda hozirda mavjud bo'lgan ko'plab muammolarga yo'l qo'yilmaydi. Chunki unda aynan kelgusida majburiyatni bo'yniga oladigan, o'zaro munosabatlarda to'lovlarning qonuniy amalga oshirilishini ta'minlaydigan badal bo'lib, ular notarial tartibda tasdiqlanib boradi va ortiqcha qog'ozbozlik talab etilmaydi.

Garov xatini boshqa shaxsga o'tkazish fuqaro uchun ipoteka krediti shartlarini o'zgartirmaydi hamda unga boshqa qo'shimcha majburiyatlar yuklamaydi. Faqat kredit bo'yicha to'lovlarni qabul qiluvchi shaxs o'zgarishi mumkin. Darvoqe, keyinchalik

bank garov xatlarini ta'minot sifatida ishlatib, boshqa moliyaviy institutlardan ham qarz mablag'larini jalb etish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, garov xatini onlayn tartibda yoki davlat xizmatlari markazlariga borib rasmiylashtirishda xarajat hamda vaqt tejajadi. Va-holanki, ayni paytda bunday hujjatni rasmiylashtirish uchun tomonlarning shaxsan qatnashishi, kadastr organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishi talab etiladi.

Demak, ipoteka elektron xati bunday jarayonlarni soddalashtirishga, aholiga qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Ayni chog'da mulk bo'yicha mavjud yuklamalar haqida xolis va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini yaratib, samarali qayta moliyalashga to'sqinlik qiluvchi holatlarga barham beradi. Bu holat kredit berayotgan bankning ham, kredit olayotgan fuqaroning ham huquqlarini kafolatlaydi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

("Xalq so'zi" gazetasining
17-dekabrda sonidan olindi).

DAVLAT, JAMIYAT VA IQTISODIYOT HAQIDA



Har gal Yevroittifoq davlatlaridan biriga kelganimda, davlatning jamiyat hayotini yaxshilashdagi roliga hayron qolaman.

To'g'ri, o'zim ham yaqin-yaqingacha Yevroittifoq tarkibida bo'lgan davlatda yashayman. Ammo Britaniya 40 yildan ortiq Yevroittifoqqa a'zo bo'lgan bo'lsa-da, baribir kontinental Yevropadan keskin farq qiladigan jihatlari bor. Shulardan biri davlat jamiyat uchun qanchalik sarmoya kiritishi kerak, qanchalik jamiyat hayotiga aralashishi kerak, degan masaladir.

Tushuntirish uchun AQShni arqonning bir uchi deb olaylik, Yevroittifoq esa narigi uchi. AQShda azaldan "davlat iqtisodiyotga aralashishi yaxshi emas" degan qarash kuchli. Albatta, hamma narsa nisbiy – "sovuq urush" davrida bu mafkura chetga chiqib turgan paytlar ham bo'lgan. Ammo AQShga borsangiz, buni sezasis – davlat insonlarni maksimal o'z holiga qo'yadi, "O'zing uchun o'lim" g'oyasi kuchli. Soliqlar past bo'lishi kerak, boylar boyishi, kambag'allar esa amallashi kerak. Tavakkalchilik baland, shunga yarasha kirim ham yaxshiroq. Biroz soddalashtiryapman, albatta.

Turli tarixiy sabablarga ko'ra, ovro'poliklar o'zaro to'qnashuv va kelishmovchiliklarning oldini olishning eng maqbul yo'li jamiyatdagi boylarni maksimal teng taqsimlash, degan qarorga kelgan. Yevrosotsializm desa bo'ladi buni. Kommunizm davridagi kabi boylarni surgun qilib, molini tortib olish orqali emas. Ko'proq soliq solish natijasida jamiyatning omadliroq vakillari sal omadsizroqlarga ham qarashadi.

Soliqlardan kelgan mablag'lar hammaga foydasi tegadigan narsalarga sarflanadi. Masalan, yaxshi ishlaydigan va hammaga birdek xizmat qiladigan tibbiyot tizimiga. Vaqtida yuradigan va to'lib ketmaydigan jamoat transportiga. Yaxshi davlat maktablariga. Nafaqada odamlar bor-budini sotmasligi uchun qariyalari uylariga. Adolatli narxlangan issiqlik va yoqilg'iga. Bulardan ham ortsa, kutubxonalariga, teatr va muzeylarga, ilm-fanga.

Masalan, kapitalizm beshigi bo'lmish Hollandiyani olaylik (bu yerda ilk birjaga va ilk butunjahon korporatsiyasiga asos solingan). Men ishlayotgan arxiv binosi ham, ichidagi

sharoiti ham, yaxshi oylik oladigan va ishidan mamnun ishchilari ham, biz tanaffusda borib ichadigan tekin qahvasi ham soliq to'lovchilar pulidan keladi. Oddiy oshxonada tushlik kamida 20 yevro bo'lsa, arxiv oshxonasida bugun shuning uchdan biriga to'yib ovqatlandim.

Qizig'i, men Hollandiyada soliq to'lamayman. Hollandiya hukumati va xalqiga o'tkazib qo'ygan joyim yo'q.

Xo'sh, nima uchun bularga pul sarflanadi, dersi? Oddiy javob bersam, ovro'poliklar hamma narsani pulga chaqib bo'lmasligini yaxshi tushunib yetgan. Yuzlab yillik savdo sotig'u, urushu jadal tarixidan har bir narsadan foyda izlash noto'g'ri ekanini anglab yetishgan. Jamiyatni qo'llash, fozil jamiyat, ulg'aygan jamiyat yaratish uchun mablag' ayamaslik kerakligini bilishgan. Iqtisodiy muvozanat tiklangach, jamiyatdagi muvozanatga sarmoya kiritish o'ta muhimligiga ahamiyat berishadi.

Aslida, vatandosh foydalansa ham, chet ellik kelib foydalansa ham, bundan hamma yutishini bilishadi. Insoniyat tarixi bir-biriga qarama-qarshi manfaatli insonlar hamkorligi tarixidir. Insonni hayvondan ajratgan faqat mehnat emas, balki butunlay boshqacha fikrlaydigan odam bilan til topishib, ikkalasiga ham manfaatli natija uchun birga kurashishdir. Jamiyat degani shundan paydo bo'ladi, har bir inson aravani o'z uyiga tortishidan emas.

Shaxsan mening fikrim - davlat barcha fuqaro va rezidentlar hayotini osonlashtirishi, ularning huquqlarini himoya qilishi yo'lida biznes va boshqa ishtirokchilarni nazorat qilishi, kerak bo'lsa, tiyib turishi kerak. Jamiyatda jamoat manfaati muhim.

Hamma narsani biznesga, bozorga qo'yib bersangiz, manfaat oldinga chiqib, boshqa narsa ikkinchi darajaga o'tadi. Bunga misollar ko'p.

Eng maqbuli, albatta, sixni ham kuydirmay, kabobni ham qoraytirmay ish tutish. Davlat institut sifatida aynan shuning uchun kerak, xalq vakillari shu maqsad bilan saylanadi.

Men yuqorida ta'riflaganim iqtisodiy va ijtimoiy muvozanat Yevropada biroz xavf ostiga kelayotgandek. O'ng-chilar buning sababini migratsiyaga olib borishmoqda. Ammo bu - alohida mavzu...

Sherzod MO'MINOV,
professor.

NEGA MULKDORLAR

boshqaruv servis kompaniyalari xizmatidan

NOROZI

SO'NGGI VAQTLARDA KO'P QAVATLI UYLARGA XIZMAT KO'RSATUVCHI BOSHQARUV SERVIS KOMPANIYALARI (BSK) YANA MUHOKAMA MAVZULARIDAN BIRIGA AYLANMOQDA. BILAMIZKI, ULAR FAOLIYATINING ASOSI UYLAR VA KO'P QAVATLI BINOLARNI BOSHQARISH, YAXSHI HOLATDA SAQLANISHINI TA'MINLASH, JUMLADAN, TEXNIK XIZMAT, SANITARIYA VA BOSHQA KOMMUNAL XIZMATLARNI O'Z ICHIGA OLADI.

Biroq yaqinda o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ko'pchilik ular faoliyatidan qoniqmaydi.

"Bugungi kunda ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv servis kompaniyalari (oldingi shirkatlar) xizmati sifatini qanday baholaysiz?" degan savol bilan o'tkazilgan ushbu so'rovnomada ishtirokchilarning 58 foizi "yaxshi emas" degan javobni belgiladi. Atigi 17 foiz qatnashchilar boshqaruv servis kompaniyalarini "qoniqarli" deb hisoblagan.

Shuningdek, ko'plab o'quvchilarimiz izohlarda BSKlar bo'yicha o'z fikrlarini qoldirgan. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

- Rasulov: Qorasuv massivi "Nur sharq tes"dan aholining asosiy qismi norozi.

- O'tkam: Rudakiy ko'chasi 105-uyda shirkat yo'q.

- Zohid: Meni domimni 1 oydan buyon tozalamaydi. Samarqand shahar Bahor mahallasi.

- Murodjon: Qorasuv massivi "Nur sharq tes" o'ta qoniqsiz, 3 marta santexnik chaqirdim, bir marta ham kelmadi. Ularga to'lovni naqdqa qila ko'rmang, kvitansiyaning saqlab yurmasangiz, hech qachon tan olmaydi.

- Ra'no Umarova: Haqiqatdan ham tizim yo'q umuman, vazifasi nimadan iborat ekanligini bilmaydi, peredoplata turganiga qaramasdan, qarzdor qilib keladi, 1 yil oldingi hisob-kitoblarni ko'rsatib, bu tizimni tubdan qayta ko'rib chiqish kerak

Afsuski, biror bir o'quvchining BSK haqida ijobiy munosabatini ko'rmadik.

Samarqand shahridagi "Farovon qurilish kommunalchi" BSK xizmatidan foydalanuvchi mulkdorlardan biri I.Tillayev biz bilan muloqotda yuqoridagi fikrlarni yana bir bor tasdiqladi: BSK tomonidan qilinishi lozim bo'lgan ishlar bajarilmagan, obodonlashtirish yo'q, ta'mirlash ishleri mulkdorlarning o'zlar tomonidan qilingan, ammo bu ishlarning sarf-xarajatlari BSK tomonidan qayta hisob-kitob qilinmagan va o'rtada qarzdorlik paydo bo'lgan.

Samarqand shahrida "Farovon qurilish kommunalchi" nomi ostida Boshqaruv servis kompaniyasi faoliyat yuritadi. Lekin shaharda bu tashkilotni nazorat qiladigan, tartibga chaqiradigan hech kim yo'q nazirimizda. Sababi, BSK rahbarlarining aytishicha, 2023-yil oxirida Mirzo Ulug'bek ko'chasidagi uylarni qo'shib olgan. Shu vaqtda mulkdorlar yig'ilishi o'tkazilmagan, mulkdorlar bilan shartnoma tuzilmagan. Shu vaqtgacha biror marta mulkdorlar bilan hisobot yig'ilishi o'tkazilmagan. BSK aholiga hech qanday ma'lumot bermasdan, o'z majburiyatlarini bajarmasdan, to'lov qilishni so'raydi. Agar BSK uyda biror bir ish qilsa, hech bo'lmasa, atrofini supurib qo'ysa, odamlar ikkilanmasdan to'lov qiladi..." deydi I.Tillayev.

"Farovon qurilish kommunalchi" BSK vakillaridan izoh so'raganimizda haqiqatan ham ayrim mulkdorlar xizmatidan rozi emasligi, tez orada umumiy yig'ilishda barcha masalalar birgalikda muhokama qilib olinishini ma'lum qilishdi.

Yolg'on bo'lmasin, Samarqand shahridagi ayrim BSKlar faoliyatini o'rgananimizda ish to'g'ri yo'lga qo'yilganiga ham guvoh bo'ldik. Biroq ko'p holatda BSKlar faoliyatidan norozilikka duch keldik.

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi nazorat inspeksiya yetakchi mutaxassisi Himmat Boliqulov yuzaga kelayotgan muammolar, ularning sabablari, BSK va mulkdorlarning huquq va



majburiyatlarini haqida shunday deydi:

- Boshqaruv servis kompaniyalari 2022-yilda tashkil etilib, joylarda uy-joy mulkdorlari shirkatlari, ko'p xonadonli uylarni umumlashtirgan holda xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda viloyatda 49 ta boshqaruv servis kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Ular ichida ishini to'g'ri yo'lga qo'yganlari talaygina. Biroq hali sohani yaxshi anglamaydigan, sohada yetarli-chi bilim va malakaga ega bo'lmagan shaxslar ishlayotgan BSKlar ham uchramoqda. Bular bilan qo'shimcha ishlash, tushuntirish olib borishni yo'lga qo'ydi. Ayrim hududlarda hozirda 17 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlari ham faoliyat yuritib kelmogda. Chunki avval boshdan ko'rsatib qo'yilgan: BSK tashkil etish ham shirkatlar ko'rinishidagi xizmatni saqlab qolish ham bu aslida mulkdorlar ixtiyorida. Shunday ekan, mulkdorlarimiz bilishlari kerak — agar BSK xizmatidan ularning ko'ngli to'lmayapti, umumiy yig'ilishda rahbariyatni o'zgartirish, xizmat ko'rsatishni qayta yo'lga qo'yish, BSKni boshqasiga almashtirish, shirkatlarga o'tish, umuman, barcha masalani hal qilishlari mumkin. Hatto mulkdorlar kelishib, uyni o'zlar boshqarib, xizmat ko'rsatishlari ham mumkin.

Mutaxassisga ko'ra, mulkdorlarning yagona vazifasi bu – badal pullarini BSKlarga vaqtida to'lab borish bo'lsa, mazkur badal ham aynan mulkdorlar bilan umumiy yig'ilishda, yillik xarajatlar hisob-kitob qilingan holda belgilanadi. Qaysidir holatda biror xonadon egasi o'z hisobidan binoni ta'mirlasa, (masalan, bino tomini ta'mirlash) bu pul albatta, BSK bilan qayta hisoblanib, xonadonning badal pulidan olib tashlanishi kerak.

Maqolani tayyorlash jarayonida tushunganimiz shu bo'ldiki, sohada juda ko'p muammoni mulkdorlarning umumiy yig'ilishlarida hal qilish mumkin. Agar BSKlar bu yig'ilishni o'tkazmayotgan bo'lsa yoki "o'tkazildi" deya rasmiylashtirilgan bo'lsa, bunga nazorat organlari aralashishlari va chora ko'rishlari lozim. Bir narsa aniq: BSKlar mulkdorlar boshiga majburiy tayinlangan rahbarlar emas, aksincha, ular mulkdorlarning xohish-istaklarini ifodalaydigan va umumiy yig'ilishlarda rahbar saylanadigan tashkilot. Mana shu haqiqatni mulkdorlar ham va ayniqsa, BSKlar ham to'la tushunganida yuqoridagi muammolar yuzaga kelmasdi.

Anvar MUSTAFOQULOV,
"Zarafshon" muxbiri.





“Ipak va Ipak yo'li:

Xanchjoudan Samarqandgacha”

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida O'zbekiston va Xitoyning madaniy-tarixiy merosiga bag'ishlangan shu nomdagi ko'rgazma ochildi.

Ko'rgazmada O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi va Xanchjoudagi Xitoy milliy Ipak muzeyiga tegishli ashyolar hamda Tang sulolasining ipakchilik san'ati bezaklari namoyish etilmoqda.

Xitoy va O'zbekiston dunyoning qadimiy sivilizatsiyalaridan, - deydi ko'rgazma ochilishida so'z olgan Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi madaniy ishlar bo'yicha maslahatchisi Chi Junlin. - So'nggi yillarda ikki mamlakat prezidentlari rahnamoligida strategik sheriklik munosabatlari va “Bir makon, bir yo'l” loyihasi doirasida amaliy hamkorlik davom etmoqda. Shuningdek, Xitoy milliy Ipak muzeyi Samarqand muzeyi hamda O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirish jamg'armasi bilan yaqin hamkorlik qilib kel-yapti. Ayniqsa, yaqinda O'zbekiston fuqarolari

uchun Xitoyga 30 kunlik vizasiz rejim joriy qilinishi hamkorligimiz yanada rivojlanayotganidan darak beradi.

Uch yil oldin Samarqand va Xitoyning milliy Ipak muzeyi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bo'lib, Ipak yo'li bo'yab madaniy merosni muhofaza qilish, aloqalarni mustahkamlash maqsadida ko'rgazmalar tashkil etib kelinmoqda. Jumladan, o'tgan yil Xitoyda “Rang-barang Osiyo: Osiyo liboslari ko'rgazmasi”, Samarqandda esa Sin sulolasi davriga oid ipak namunalari, liboslar va shoyi mahsulotlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Xitoy milliy Ipak muzeyi direktori Jou Yangning ta'kidlashicha, Xanchjou va Samarqand Xitoy ipak madaniyatining tug'ilgan joylaridan biri va Ipak yo'lidagi muhim markazlardir. Shu jihatdan Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida o'tkazilayotgan navbatdagi ko'rgazmada Samarqanddagi nodir eksponatlar, Tang sulolasining ipakchilik san'ati, bezak va naqshlar, Xitoy milliy Ipak muzeyi xazinalaridan o'rin olgan kolleksiyalar ekspozitsiyaga chiqarilgan.

Ko'rgazma bir yil davom etadi.

F.RO'ZIBOYEV.

Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutida bastakorlar o'rtasida “Maqom yo'llarida yaratilgan eng yaxshi asar” VI respublika ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

Tanlovda o'zbek milliy maqom san'ati markazi viloyat hududiy bo'limi maqom ansambli badiiy rahbari Bahodir Bobojonov “IROQ” maqomi uchun yaratgan turkum asari uchun faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, samarqandlik taniqli san'atkor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaytarov Farmon Toshev qalamiga mansub “Samarqand tanovori” she'rini qo'shiq qilib kuyladi va ashula respublika radiosida yozilib, fonotekaning oltin fondiga olinadigan bo'ldi.

Mazkur tanlov maqom san'atining rivoji uchun yangi iste'dodlarni kashf etish, bastakorlar va kompozitorlarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2019-yildan buyon o'tkazib kelinmoqda, - deydi E.Qaytarov. - Bu yilgi tanlovda qo'shiq'imiz e'tirof etilib, oltin fondga olingani Samarqand san'at ahlining yutug'i dey-

“SAMARQAND TANOVORI”

e'tirof etildi



yish mumkin. Chunki milliy musiqiy merosni zamonaviy bastakorlik yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirish, maqom yo'llari orqali xalqimizning

boy musiqiy an'analarini targ'ib etish hamda ijodiy tajribalarimiz shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan san'atkorlarga tajriba bo'lmoqda.

Samarqandda 90 ming ishsiz bor

Viloyat Matbuot uyida kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan hamda sohada korrupsion jinoyatlarning oldini olish borasidagi ishlar yuzasidan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari Bekzod Saitovning ma'lum qilishicha, hozir viloyatimizda 2189,5 ming nafar aholi mehnat resursi hisoblanadi. Shundan ish bilan band bo'lganlar 1520,1 ming nafarni tashkil etmoqda. Xususan, rasmiy sektorda 579,1 ming, norasmiy sektorda 662,9 ming kishi mehnat qilmoqda. Xorijga ishlash uchun ketganlar 153,7 ming nafar. Ishsizlar 90,8 ming nafar bo'lib, ishsizlik darajasi 5,6 foizni tashkil etadi.

Joriy yil hisobidan tashkilotimiz 37768 nafar fuqaroning ishga joylashishiga ko'maklashdi, - deydi Bekzod Saitov. - Shuningdek, 4500 nafar fuqaro jamoat ish-

lariga jalb qilindi. Ayni vaqtda viloyatdagi 11942 ta korxon va tashkilotda 26501 ta bo'sh ish o'rnini mavjud. Shundan 4816 tasi davlat tashkilotida bo'lsa, 21685 tasi xususiy sektor korxonalarida. Aytish joizki, yaqin gacha davlat va xususiy sektor tashkilotlaridagi bo'sh ish o'rinlari soni deyarli teng bo'lardi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillarining qaror topishi barobarida xususiy sektorning aholi bandligini ta'minlashdagi ulushi oshib bormoqda.

Tadbirida mas'ullar jurnalistlarning fuqarolar murojati bilan ishlash, bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot olish, norasmiy mehnat va korrupsion holatlarga chek qo'yish borasidagi savollariga ham javob berdi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Samarqand davlat chet tillar instituti quyidagi lavozimlarga shartnoma asosida

TANLOV E'LON QILADI:

- Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasini mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Fransuz filologiyasi kafedrasini mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Yapon filologiyasi kafedrasini mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Ingliz filologiyasi kafedrasini mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor;
- Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasini professori - 1 nafar, fan doktori, professor;
- Fransuz filologiyasi kafedrasini professori - 1 nafar, fan doktori, professor;
- Rus filologiyasi kafedrasini professori - 1 nafar, fan nomzodi, professor;
- O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasini professori - 1 nafar, fan doktori, professor;
- Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar, ilmiy darajasiz dotsent;
- Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Ingliz tili nazariyasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

- Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Ispan va italyan tillari filologiyasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Nemis filologiyasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Rus filologiyasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Ikkinchi chet tillar kafedrasini dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Rektor nomiga ariza;
- Ma'lumoti to'g'risidagi diplomlardan nusxa;
- Ilmiy ishlar ro'yxati (3.4 shakl tasdiqlangan holda);
- Pasport nusxasi;
- Ma'lumotnoma (obyektivka).

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahar Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy, xodimlar bo'limi. Telefon: +99866-238-29-33.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Axrorova Xalovatga (1994-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Tagiyev Nuraliga (2020-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Marupov Toxir Marufovichga (2015-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Shakirov Anur Nigmatullayevichga (2014-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Keldiyev Xudiyar Raximjonovichga (2023-yil 10-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosa-

bat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Lapasov Samariddin Rabbimovichga (2016-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebunis ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Xotamov Amonga (2013-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Ruzikulov Xolyigit Negmatovich va sotib oluvchi Narbaev Baxtiyor Sobirovichlar o'rtasida Payariq tumani Chelak shahri, Istiqlol ko'chasi, “Chelak dehqon bozori” hududida joylashgan umumiy maydoni 31,36 m.kv., qurilish tagidagi maydoni 31,36 m.kv., foydali maydoni 25,2 m.kv. ni tashkil etgan 1 xonadan iborat 35-sonli savdo do'konini binosi uchun “BEST REALTOR” MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligidagi 2021-yil 19-martda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 039-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnoma asosida 2021-yil 19-martda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Azizov Paxlavon Djurakulovich va sotib oluvchi Azzamkulov Mashrabjon Abirkulovichlar o'rtasida Samarqand shahri “Siyob dehqon bozori” hududida joylashgan savdo do'konining bir qismi (umumiy maydoni 34,0 m.kv., foydali maydoni 33,2

m.kv., egallab turgan yer maydoni 34,0 m.kv.) uchun tuzilgan “Samarqand viloyat davlat kadastr” bosh boshqarmasidan 2003-yil 14-iyulda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi “JAVLONBEK DUSANOV OLMAZORI” fermer xo'jaligining (STIR: 304622385) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi “GREEN CARD HUMO” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310039292) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi “CENTRAL GREEN CARD” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306646211) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi “SAMARKAND HUMO VIZA CENTER” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310921748) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi “HUMO GREEN CARD SAMARKAND” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310921755) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi “VIZA CENTER HUMO” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310039317) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti jamoasi universitet geografiya va ekologiya fakulteti ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasini professori Lutfullo Ibragimovga otasi **ZIYODULLO bobonov** vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i Nosir Jumayevga opasi **KOSIYAT ayaning** vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Sog'lom bo'lish uchun

SPORT
BILAN
SHUG'ULLANING

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 55 foiz holatda sog'lom turmush tarziga bog'liq. Ortiqcha vazn yoki biror yondosh kasalliklari bor, sog'lig'iga yetarlicha e'tibor bermaydigan kishilarda har qanday kasallik og'ir kechadi. Aksincha, immuniteti kuchli, sog'lom turmush tarziga amal qiladigan, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi insonlar yoshidan qat'i nazar, xastalikni tez va oson yengib o'tadi. Albatta, odamlar bu tavsiyalarga ongli ravishda amal qilishga odatlansa, sog'lom turmush tarzini hayotining bir bo'lagi sifatida qarasa hamda farzandlarini ham shunga o'rgatsagina samarali natijaga erishish mumkin. Xo'sh, bu borada mutaxassislar qanday tavsiya beradi?

BOLALAR UCHUN SPORT TURI
YOSHGA KO'RA TANLANADI

Sog'lom turmush tarziga amal qilishning to'rt asosi bo'lib, bular to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlik, zararli odatlardan voz kechishdir. - deydi viloyat ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi vrachi Maftuna Ibragimova. - Farzandlarimizni bolaligidan bunga o'rgatish juda muhim. Avvalo, 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'g'ri ovqatlanishini tashkil etish, shifokor nazoratida bo'lishi hamda harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kerakli o'yinchoqlar bilan ta'minlash lozim. Shu bilan birga, bolalarni ma'lum bir yosh uchun mo'ljallangan sport turlari bilan ham shug'ullantirish kerak. Bu bolaning sog'lom rivojlanishi uchun juda zarur.

Bolani o'zining yoshiga mos sport turiga berish maqsadga muvofiq. Xususan, 2-3 yoshda bolalarning jismoniy yuklamaga suvda bardosh berishi oson. Bunda suv va xona haroratini hisobga olib, bolaning tanasini suvda chiniqtirish kerak. Ammo bunday yoshda organizmni qiynab yuborish tavsiya etilmaydi. Bu yoshda bolalarga turli harakat va o'yinlar to'g'ri keladi. Masalan, velosiped haydash, to'p bilan o'ynaladigan o'yinlar, estafeta, bekinmashoch, faol o'yinlar paytida yugurish va boshqalar.

4-5 yoshda sport raqslari, gimnastika bilan shug'ullangan ma'qul. Sport raqslari bola tanasini qayishqoq qiladi va boshqa sport turlarini boshlash uchun yaxshi asos bo'ladi. 5-6 yoshdan karate bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotlarda bolalar diqqatni jamlash, o'z energiyasini zarur oqimga yo'naltirishga o'rganadi. 7 yoshdan bolaning jismoniy holati va qiziqishlarini hisobga olib, xokkey, badminton, stol tennis, futbol va boshqa sport turlariga berish mumkin.

YENGIL ATLETIKA – BARCHA
UCHUN QULAY SPORT TURI

Ortiqcha vazn yurak, jigar, buyrak, bo'g'imlarga salbiy ta'sir qilishi oqibatida qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, gipertoniya kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi, - deydi Samarqand Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi yengil atletika bo'yicha murabbiyi Muzaffar Karimov. - Bularning barchasi noto'g'ri ovqatlanish, me'yordan ko'p yog'li taom va shirinliklar tanovul qilish, harakatsizlik, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmaslik hamda vaqtda tibbiy ko'rikdan o'tmaslik natijasida yuzaga keladi. Zararli odatlarning oldini olishning qulay usuli yengil atletika bilan shug'ullanishdir.

Yengil atletikada 50 dan ziyod mashq bor. Masalan, yaponiyaliklar eng ko'p shug'ullanadigan sport turi — piyoda yurish. Shuning uchun yaponlar uzoq umr ko'rishadi. Muntazam piyoda yurish — qon bosimini me'yorlashtiradi, kayfiyatni va organizmning umumiy holatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, qon bosimi va xolesterin miqdorini me'yorlashtiradi. Piyoda yurish uchun eng ma'qul vaqt ertalab bo'lib, bu vaqtda havo musaffo bo'ladi. Kechki paytda piyoda yurish esa yengil uxlashiga va organizm salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ertalab yugurish inson tanasi uchun foydalidir. U immunitet tizimini yaxshilaydi, energiya beradi, nafas olish tizimini va chidamliligini yaxshilaydi. Shifokorlarning fikriga ko'ra, yugurish tanaga foydali ta'sir ko'rsatadi, nafas olish va yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Yugurish tufayli o'pka tozalanadi. Shuningdek, ertalab va kechki badantarbiya mashqlarini bajarish asab tizimini tinchlantirib, stressni qoldiradi, ishtahani yaxshilaydi, ovqat hazm qilishga organizmni tayyorlaydi.

F.RO'ZIBOYEV tayyorladi.

Bejiz bundan bir necha asrlar ilgari allomalarimiz bola tarbiyasini ona qorindagi homiladan boshlash kerak, deyishmagan. Bu tarbiya haqida bugun yosh onalarimiz bilishi kerak bo'lgan jihatlar juda ko'p.

Toyloqda tashkil etilgan "Ilk rivojlanish markazi" bir qaraganda bolani maktabga tayyorlash dasturini amalga oshiruvchi tashkilotga o'xshaydi. Ammo uning faoliyati bilan kengroq tanishsangiz, go'dak endi o'yinchoq tuta boshlagandan boshlab unga yoki bu ko'nikmalarni o'rgatish, alohida ehtiyojga ega bolajonlarni dori bilan emas, o'yinlar bilan ahvolini yaxshilash mumkinligini ko'rasiz. Toyloq tuman pedagogika kolleji negizida tashkil etilgan mazkur markaz ishi bilan tanishar ekanmiz, bolajonlarga asosan o'yin orqali ta'lim berilishi hayratimizni oshirdi. Yo'laklardan tortib

SOG'LOM OILA –
JAMIYAT USTUNI

"Zarafshon"ning maxsus sahifasi



xonaga kurguncha bolani rivojlantiruvchi raqamlaru shakllar, tabiat tasvirlangan. Bola ta'lim olayotgan xonasiga kirayotganda salom berishi barobarida maxsus doskalarda o'z kayfiyati va davomatini ham belgilab boradi.

Markazning asosiy maqsadi bolaning shaxsini rivojlantirish, uning istaklariga quloq tutish orqali ta'lim berish hisoblanadi, - deydi "Ilk rivojlanish markazi" koordinatori Zarina Zohidova. - Shuning uchun dasturlarimiz ham oddiy bog'chalardagidan biroz farq qiladi.

Jabrini farzandlarimiz ko'rmasligi kerak

Har qanday jamiyatning ravnaqi undagi oila institutining mustahkamligiga bog'liq. Albatta, buning o'z talab va me'yorlari bor. Jumladan, oila a'zolarining sog'lomligi uning mustahkamligi asosidir.

Ijtimoiy himoya milliy agentligidan olingan ma'lumotga ko'ra, viloyatimizda 20 ming nafardan ortiq nogironligi bor bolalar ro'yxatga olingan. 18 yoshgacha nogironlik dinamikasining o'tgan 3 yilligi tahlil qilindagina, 1720 nafarga yoki 9,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Bu bolalarning 12816 nafari tug'ma nuqsonli bo'lib, bu ko'rsatkich ham 3 yilda 2116 nafarga oshgan.

Mazkur muammoga olib keluvchi ko'plab sabablarni sanash mumkin. Xususan, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh ham yosh avlodning sog'lom tug'ilishi va barkamol bo'lib voyaga yetishiga to'siq bo'ladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, yaqin qarindosh bo'lgan erkak va ayol oila qursa, xromosomalarning strukturaviy o'zgarishi va dominant yoki retsessiv tipdagi mutatsiyalar natijasida yuzaga keluvchi irsiy kasalliklarning chastotasi yuqori bo'ladi. Natijada son suyagining tug'ma chiqishi, tayanch harakatlanish yoki aqliy rivojlanishdan ortda qolish, epilepsiya, quyonlabilik, maymoqlik, raxit, al-

Oddiy o'yinlar bilan
tuzalayotgan bolalar

"Ilk rivojlanish markazi"da tarbiyalanmoqda

Markazda 40 ta o'yin guruhi tashkil etilgan bo'lib, bu guruhlarda tarbiyalanayotgan bolalarga 20 nafar pedagog ta'lim bermoqda. Pedagoglarning barchasi xorijlik mutaxassislar ishtirokida o'tkazilgan seminarlarda o'qitilgan.

Loyiha boshidan beri 1224 oila, 1421 nafar bola, shundan 12 nafari alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar qamrab olindi. Oilalar va bolalarga uyga tashrif buyurish uchun jadval tuziladi, unga ko'ra har bir pedagog masofaga qarab oilalarga boradi. Supervayzer sifatida pedagoglarga yordam beradigan 2 mentor – murabbiy bor. Har bir pedagog 10 ta oilaga hamroh bo'ladi, har bir oila uchun rivojlanish rejasini ishlab chiqiladi, unda rivojlanish maqsadlari, rivojlanish bosqichlari va bolalarning rivojlanishi uchun kutilayotgan yakuniy natijalar belgilanadi.

Mazkur rivojlanish markazi uchta muqobil model asosida faoliyat yuritadi. Birinchi model bu - uyga tashrif buyurish modeli bo'lib, unda maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 2-6 yoshli bolalari bo'lgan kam ta'minlangan oilalar qamrab olinadi. Ayni paytda 326 oilaning 343 nafar bolasiga 17 nafar pedagog ta'lim-tarbiya bermoqda. Loyiha boshlanishidan beri 696 oila, 786 nafar bola qamrab olindi. Bolalarga bu mashg'ulot payti yengil tamaddi va mevalar beriladi. Ikkinchi modelga ko'ra markazda erta yoshdan o'qitish bo'yicha o'yin guruhlari tashkil etish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra bolalar haftasiga 5 kun, kuniga 3,5 soat o'yin asosida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ushbu modelda ham 3-6 yoshli bolalari bor kam ta'minlangan oilalar ishtiroki ta'minlanadi. Ayni damda modelga 452 oilaning 542 nafar bolalari qamrab olingan. Ularning 7 nafari alohida ta'limga ehtiyoji bor o'g'il-qizlar.

Uchinchi modelimiz esa bolalarda alohida ta'limga ehtiyoji bor oilalarga tashrif. Bunda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar va qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish



imkoniyatiga ega bo'lmagan oilalar farzandlariga ta'lim beriladi. Ayni paytda 31 oilaning 32 nafar farzandi qamrab olingan. Loyiha avvalidan boshlab 109 nafar bola shu dastur bo'yicha ta'lim oldi. Ular 8 marta tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

2024-2025-o'quv yilida 137 nafar bola maktabga chiqqan bo'lsa, ularning 4 nafari alohida ehtiyojga ega bolalardir. Bu bolalarning oddiy maktabga borishi ushbu dasturning asosiy muvaffaqiyatlaridan biri, deb o'ylayman.

Aytish kerakki, bugungi kunda Toyloq tumanida bolalarning maktabgacha ta'lim tizimiga qamrovi 81 foizni tashkil etmoqda, uning 4,3 foizi rivojlanish markazi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, loyiha ish boshlagan 2021-yildan boshlab kam ta'minlangan 2026 oilaning 2315 nafar bolalari maktabgacha ta'limga jalb etildi.

Bir misol aytay, DAUN sindromli 3 yoshli bola bilan shug'ullana boshlaganimizda, u deyarli hech qanday xatti-harakatni mustaqil bajara olmasdi. Ikki yillik mashg'ulotlardan so'ng unda bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi va u oddiy bog'chaga borish imkoniga ega bo'ldi. Ya'ni, u shu payt davomida dori-darmon qabul qilmadi, faqat o'yinli, harakatli mashg'ulotlar, tengdoshlari bilan muloqot orqali salomatligi, hatto shifokorlarning o'zlarini ham hayron qoldirgan tarzda o'zgarishiga erishdi.

Hozircha faqat Toyloqda va Namanganning Kosonsoy tumanida tashkil etilgan bu kabi markazlar kelgusida barcha tumanlarda tashkil etilishi belgilandi.

Gulruh MO'MINOVA.



nasi-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar kiritilgan. Lekin qonunchilikda aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singilari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari singari yon shajara qarindoshlik nazarda tutilmagan. Demak, istak bo'lsa, "muammo" yo'q. - Bunday nikohlanuvchilar bilan alohida tushuntirish ishlari olib boriladi, - deydi Samarqand shahridagi 5-son fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi

Xulosa qilib aytganda, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar taqiqlanishi, juda bo'lmaganda, unga faqat tibbiy genetik tekshiruv (DNK testi) natijasiga qarab ruxsat berishni yo'lga qo'yish lozim. Ma'lumotga ko'ra, bunday tartib AQSh, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Turkiya, Ukraina, Irlandiya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va yon qo'shni - Tojikiston davlatlari qonunchiligida aks etgan. Bizda ham shunga harakatlar bo'lib, qonunga o'zgartirish kiritish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ammo hali natija yo'q.

Asqar BAROTOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438, 10 421 nuxxada chop etildi. Buyurtma 671. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda